

**NUTQNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA SO`Z VA UNING
MA`NO TURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA UNDA
O`ZBEK TILSHUNOSLARINING XISSASI**

Xaitmamatova Saodat Ulug`bek qizi

Guliston davlat universiteti 2-kurs magistranti, Guliston shahar 17-maktab
boshlang`ich sinf o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6526943>

Annotatsiya. Ushbu maqolada so`z va uning ma`no turlari: sinonim, antonimlar haqida va ulardan nutq jarayonida qanday o`rinli foydalanish, o`zbek tilshunos olimlarining bu boradagi izlanishlari va qimmatli fikrlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: sinonim, sinonimik, sinonimiya, faraz, antonim, nutq, frazealogiya, lingvistika, lug`at, leksikalogiya, leksema.

**ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЛОВ И ИХ ВИДОВ ЗНАЧЕНИЯ
В ПОВЫШЕНИИ ОТНОШЕНИЯ РЕЧИ И ВКЛАД УЗБЕКСКИХ
ЛИНГВИСТОВ**

Аннотация. В данной статье рассматриваются слово и его виды значений: синонимы, антонимы и способы их употребления в речевом процессе, исследования и ценные идеи узбекских языковедов на этот счет.

Ключевые слова: синоним, синоним, синоним, гипотеза, антоним, речь, фразеология, языкознание, словарь, лексикология, лексема.

**THE IMPORTANCE OF THE USE OF WORDS AND THEIR TYPES
OF MEANING IN INCREASING THE ATTITUDE OF SPEECH AND THE
CONTRIBUTION OF UZBEK LINGUISTS**

Abstract. This article discusses the word and its types of meanings: synonyms, antonyms and how to use them in the speech process, the research and valuable ideas of Uzbek linguists in this regard.

Keywords: synonym, synonym, synonym, hypothesis, antonym, speech, phraseology, linguistics, dictionary, lexicology, lexeme.

Buyuk ajodolarimizning betakror va noyob ilmiy-ma`naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o`lmas meros hamisha yonimizda bo`lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag`ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta`lim tizimini ana shunday ruh bilan sug`orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma`naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.¹

So`z va uning ma`no turlari ustida juda ko`p tilshunoslar izlanishlar olib borishgan. Ular to`g`risida bir qancha kitoblar yaratishgan. Masalan, Filologiya fanlari doktori, professor, O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Xodjiyev Azim Po`latovich O`zbek tili morfologiyasi, so`z yasalishi, leksikalogiya va leksikografiya, orfografiyaga oid bir qator ishlari o`zbek tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo`shdi. “O`zbek tilida ko`makchi fe'l”, “To`liqsiz fe'l”, “Hozirgi o`zbek tilida shakl yasalishi”, “O`zbek tilining izohli lug`ati sinonimlari”, “O`zbek tilshunoslik atamalarining izohli lug`ati”, “Lingvistik atamalarning izohli lug`ati” asarlari shular jumlasidandir. , Filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Raxmatullayev Ubaydullayevich o`zbek tili leksikalogiyasi, leksikografiyasi, morfologiyasi rivojiga ulkan hissa qoshgan olimdir. Xususan, o`zbek frazealogiyasining shakllanishi va rivojlanishida uning xizmatlari katta. “O`zbek tilining izohli frazealogik lug`ati”, “O`zbek tili antonimlarining izohli lug`ati”, “O`zbek tilining izohli lug`ati” shular jumlasidandir. “O`zbek tilining izohli lug`ati”da sinonim, sinonimik, sinonimiya terminlariga quyidagicha ta`rif berilgan: Sinonim (yunoncha- bir xil nomli) tilshunoslikning shakli bir xil, ma`nosi esa bir xil bir xil yoki biroz farqli bo`lgan til birliklari qatoridagu bir xil til birligi. Sinonimik tilshunoslikda bir-biriga sinonim bo`lgan ma`nodosh, sinonimik so`zlar.

Sinonimika tilshunoslikda:

1. Biror tilning sinonimlari majmui. O`zbek tili sinonimikasi.
2. Leksikalogiyaning sinonimlarni o`rganuvchi bo`limi.

Sinonimiya (yun. Bir-xil nomga egalik) til birliklarining ma`no jihatidan yaqinlik, ma`nodoshlik hodisasi.

H.Jamolxonov “Hozirgi o`zbek adabiy tili” kitobining “Leksik sinonimiya” qismida “Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi: ular nutqning ravon va ta`sirli bo`lishini, fikrning aniq va obrazli chiqishini ta`minlaydi” degan fikrni berib o`tganlar. “Tayanch tushunchalar” sifatida quyigadilarni misol qilib ko`rsatgan.

Sinonimiya - leksemalarning bir-xil ma`no anglatishiga ko`ra guruhlanishi.

Sinonimik qator (Sinonimik uya) – bir ma`no anglatishiga ko`ra guruhlangan sinonim so`zlar yig`indisi.

Dominanta – sinonimik qatordagi betaraf ma`noli so`z.

Ma`no sinonimlari – bir umumiylar ma`noga ega bo`lsa-da, ma`no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.

Uslubiy sinonimlar – leksik ma`nolari ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.

Nutqiy sinonimlar – nutqning u yoki bu turiga xoslanganligi bilan farqlanadigan sinonimlar.

Sinonimlarning turli xususiyatlarini o`rganish sohasida o`zbek tilshunosligida bir qator yutuqlarga erishilgan. Shunga qaramasdan akademik Azim Hojiyev sinonimlarning o`rganilishi tarixi haqida quyidagicha mulohaza bildiradi: “Sinonimlar turli tillarda darajada o`rganilgan. Bu masala ayrim tillarda ancha to`la o`rganilgan bo`lsa, ayrim tillarda, jumladan, o`zbek tilshunosligida deyarli ishlanmagan. Tilshunoslikda bayon qilingan fikrlar bir-biriga ko`p hollarda mos kelmaydi. Bu holat, avvalo, sinonimlarning ta`rifida ko`zga tashlanadi”.

Sinonimlar va ularni qo`llashga bo`lgan e`tibor uzoq davrlardan boshlangan. O`z zamonasida, nafaqat o`z zamonasida, balki, hozirgi kunda ham buyuk mutafakkir va shoir, tilshunos va adabiyotshunos olim deb tan olingen Alisher Navoiy ”Muhokamat ul – lug`atayn” asarida sinonim so`zlarning nutqni boyitishdagi rolini chuqur tahlil qilib bergen. O`zbek tilshunosligida frazealogik –

sinonimlarning turli xususiyatlarini o`rganishga e`tibor XX asrda ancha kuchayganligi ko`zga tashlanadi.

Akademik Hojiyev tilshunoslikda keng tarqalgan bir qator farazlarni o`rganib chiqqan holda sinonimiya hodisasiga o`ziga hos ta`tif berdi. Professor Y.Tojiyev XX asrning 70-yillaridan so`ng rus va Yevropa tilshunosligida paydo bo`lgan ta`riflar, talqinlarga suyangan holda, faqat lug`aviy sinonimlarnigina nazarda tutmasdan, balki, bu masalaga nisbatan o`zgacha bir ta`rif berishga harakat qildi.

A.Hojiyev “Birlashtiruvchi ma`nosi bir xil , talaffuz va yozilishi, qo`shimcha ma`no ottenkalari har xil bo`lgan so`zlar sinonim hisoblanadi” desa, Y.Tojiyev “Tildagi alohida olingan birliklarning ayrim ma`nolariga ko`ra teng kelib qolishidan hosil bo`lgan til hodisasi sinonimlar deb ataladi”, deb ta`kidladi.

R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbanova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abduzalovaning “ Hozirgi o`zbek adabiy tili” nomli darsligining “Leksik-semantik munosabatlar” qismida sinonimik munosabatlarga doir qimmatli fikrlar bildirilgan.

Professor S.Karimov “O`zbek tilining badiiy uslubi” nomli monografiyasida sinonimlar to`g`risida qimmatli fikrlarni bildirgan. Sinonimlar bir tushunchani turli xil ma`no nozikliklari bilan ifoda qilishda undan foydalanuvchilar, xususan, shoir va yozuvchilar, jurnalistlar uchun muhim imkoniyatlaridan biridir.

O`bek tilshunosligida, yuqorida ham qayd etganimizdek, sinonimlarni o`rganish sohasida salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ular qatorida A.Doniyorov, A.Hojiyev, R.Qo`ng`urovlarning ishlari o`rniga ega. Darhaqiqat, leksik vositalar orasida sinonimlar tilimizning ijtimoiy va badiiy-estetik jilolarini namoyish qila olishibilan eng muhim o`rinni egallaydi. Sinonimiyani nutqiy ijodning chegaralanmagan imkoniyatlarini yuzaga keltira oluvchi o`ziga hos maydon deyish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham A.M.Peshkovskiy va A.I.Efimov kabi olimlar nutqiy vositalar sinonimoyasini o`rganishni stilistikaning markaziy muammolaridan biri deb ta`kidlaganlar. Sinonimlar badiiy uslubda muhim stilistik vosita bo`lib xizmat qilishini S.karimov A.Hojiyevning “O`zbek

tili sinonimlarining izohli lug`ati” asosida o`rganib, diqqatga sazovor fikrlarni aytib o`tgan. Misol uchun quyidagilarga e`tabor beraylik: agar – basharti. Basharti shahzoda uning tilagini hurmat qilsa, o`z ixtiyori bilan sultanatdan voz kechib, o`zini bus-butun ilm-fanga bag`ishlashnni ko`ngilga tuyub qo`ydi (O.Yoqubov Ulug`bek xazinasi).

Aytmoq – bayon qilmoq, izhor qilmoq: Pinhon siring bayon et, Ko`ksing ni qilma ko`p qon (E.Vohidov. G`uncha), Men ham axir seningdek, Izhori ishq etolmay, Ko`ksimda dudi ohim, Dashtlar aro quyuncha (E.Vohidov. G`uncha).

Balog`at – kamol, kamolat: Senla birga javlon urib dunyoga kelgan, Senla o`sib shon yaratib kamolga yetgan (Zulfiya. Qurdosh qizga), Ishqchi, bahor giyohi kabi, Avj oldi, topar kamolot (Zulfiya. Muhabbat – bu...).

Barg – yaproq: Bugun bosh ustingda yashnagan yaproq, Shovillab to`kilar erta poyingga (Abdulla Oripov. Ko`pdan kutgan edim).

Baxt – iqbol, saodat: Iqboli negun, baxti ham qora ekan mendek (Furqat. Sayding qo`ya ber), Saodat garovi har qanday yumush, Xonzoda qiziday o`tirma bekor (G`ofur G`ulom. Xotin).

Begona - o`zga, g`ayir, ag`yor: O`zga yurtda buncha qorong`u, Uzun buncha tun? (Zulfiya. tun).

Butunlay – batamom, tamomila, tamoman:cShu kundan e`tiboran o`g`limiz Abdulatif Samarqand taxtiga vorislikdan tamomila mahrum etiladi.(“Ulug`bek yulduzi” kinofilmidan); Bardosh bermas iroda, idrok, Tamoman lol aql, tushuncha (Zulfiya. Ne baloga etding mubtalo).

Professor S.Karimovning ta`biricha, har bir milliy tilda, shu qatori, o`zbek tilida ham ma`lum tushunchalarni anglatuvchi sinonimlarning mavjud bo`lishi va sinonimik qatordagi birliklar soni bu tilning boyligini ko`rsatuvchi sifat belgilari hisoblanadi. Sinonimik qatordagi so`zlarning uslubiy tabaqalana borishi esa tilning bu fazilatlarini to`ldirishi lozim. Bir qadar emotsional bo`lsa-da, bir tushunchani ifoda etuvchi bir nechta so`zdan ko`zda tutilgan ma`no va his-tuyg`uni ifoda eta

oladigan shaklini olib va tanlab ishlatish naqadar huzurbaxsh ish ekanligini ta`kidlashga undaydi.

H.Jomolxonov “Hozirgi o`zbek adabiy tili” kitobining “Leksik sinonimiya qismida ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlarni quyidagicha guruahlarga bo`ladi:

1. Ma`no sinonimlari. Bunday sinonimlar ma`no qirralari bilan farqlanadi. Misol uchun, achchiqlanmoq, g`azablanmoq, qahrlanmoq leksemalari “G`azabi kelmoq” ma`nosi bilan bir sinonimok qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma`noni ifodalash darajasi bir xil emas, u “achchiqlanmoq”dan “g`azablanmoq”qa, “g`azablanmoq”dan esa “qaxrlanmoq”qa qarab kuchayib boradi.

2. Uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma`nosi ijobiy yoki salbiy bo`yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo`ladi, ayni shu uskubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini anglatadi. Misol uchun, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarning barchasida bitta leksik ma`no – “ovoz chiqarmay miyig`ida kulish” hodisasini nomlash hisoblanadi, ammo shu ma`no jilmaymoq leksemasida biroz ijobiy, iljaymoq leksemasida biroz salbiy bo`yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo`yoq irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarida yanada kuchayib boradi.

3. Nutqiy sinonimlar – nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o`zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha qatoridagi ozgina leksemasi nutqning barcha ko`rinishlarida, adabiy nutqda ham, so`zlashuv nutqida ham qollana olgani holda, picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha leksemalari faqat so`zlashuv nutqiga moslashgandir. O`zaro umumiyligi ma`nosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi – bo`yog`i va nutqda ishlatish ko`lamiga qarab farqlanadigan sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi.

Leksik ma`nosi jihatidan farqlanadigan sinonimlar ideografik (ma`no) sinonimlaridir. Jumladan, kasal (umumiyligi ishlatiladigan so`z), bemor (yozuvda ko`p qollaniladi), xasta (eskirgan so`z), ba`zan, ora-sira kasal bo`lib turish

ma`nosini bildiruvchi betob, notob so`zlar boshqalariga nisbatan stilistik va ideografik sinonimlardir. Ideografik sinonimlar o`zaro leksik ma`no darajasiga ko`ra ajratiladi: “yomg`irda kiyimim nam bo`ldi, yomg`irda kiyimim ho`l bo`ldi” bog`lanishlarning keyingisida belgi darjasи kuchliroq. Nutqda fikr ottenkasiga, leksik, grammatik yoki stilistik xarakteriga mos sinonim so`zlardan bittasi tanlab olinadi va qo`llaniladi. Shuning uchun sinonimik qatordagi so`zlar o`rtasidagi ba`zi farqlarni o`rganish stilistikaning vazifasi sanaladi. Muayyan sinonimik qatorni tashkil etuvchi so`zlar konkret hollarda ma`no tomonidan bir-biridan farqlanadi, stilistik qo`llanishiga ko`ra ajraladi.

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so`zlar ma`no jihatidan yaqin bo`lsa ham, ba`zan ulardan birini ikkinchisining o`rnida qo`llab bo`lmaydi. Masalan, ayanch ahvol, og`ir ahvol, qiyin ahvol, mushkul ahvol birikmalarida ayanch, og`ir, qiyin, mushkul so`zlar bir-biriga sinonim hisoblanib, ayni o`rinda ularni almashtirish ma`noni o`zgartirmaydi. Lekin boshq bir konkret tushuncha yoki tasavvurni ifodalashda bu sinonim so`zlarni leksik ma`no nuqtai nazaridan baholashkerak bo`ladi. Misol uchun, og`ir chamadon deyish mumkin bo`lgan holda, mushkul chamadon, qiyin chamadon deyish mantiqqa zid. Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi tomonidan ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, hamma nutq stillarida qo`llanadigan umumnutq so`zi, dudoq – badiiy nutq so`zi; shamol - umumnutq so`zi, sabo - badiiy nutq so`zi; rohat – umumnutq so`zi; eslamoq - badiiy nutq so`zi; xotirlamoq – rasmiy nutq so`zi; yo`qlamoq – so`zlashuv nutqi so`zi. Bunday sinonimlar still (uslub) sinonimlari deyiladi.

Shu bilan birga, ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo`lishi mumkin. Misol uchun, keksa, qari, oqsoqol, nuroni, mo`ysafid kabi bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so`zlar orasida qari so`zining qo`llanishi doirasi keng. Bunday so`zlardan insonlardan tashqari, hayvonlar uchun ham qo`llaniladi: qari ot, qari tulki kabi. Lekin oqsoqol, nuroni, mo`ysafid sinonim so`zlarining qo`llanish doirasi chegaralangan. Shunga o`xshash holatlarda ishlatilish

doirasining keng – torligi sinonimlar ma`no hajmiga, ya`ni ularning keng yoki tor ma`no ifodalashiga bog`liq.

O`bek tili nutqda nozik ma`no ottenkalarini hamda rang barang stilistik bo`yoqlarni bera oladigan sinonimlarga boy. Mashhur o`zbek shoir va yozuvchilari, so`z ustalari sinonimlardan o`z o`rnida ustalik bilan qo`llab kelganlar.

Alisher Navoiy o`zining “Muhokamat ul – lug`atayn” asarida birgina yig`lamoq so`ziga mazmunan yaqin bo`lgan yettita sinonimini keltirgan.

Hayotimizda sodir bo`lyotgan va keljakda sodir bo`lyotgan barcha narsalarni mavzular kesimida hayotdan olib, hayotga bog`lab amaliy isbotlab, amaliy ko`rsatib tasavvur hosil qila olsak, yoshlar nafaqat ona tili va o`qish fanlarida, balki boshqa fanlardan ham mantiqqa tayanib tasavvur hosil qiladilar. Keyingi paytda bosqichma-bosqich rivojlanib kelayotgan ta`lim sohasida aynan ona tili fanining oldiga qo`yilgan asosiy maqsad o`quvchi nutqini o`stirishdan iborat. Aynan darsliklar ham so`z boyligini oshirish bilan bog`liq turli mashq va topshiriqlarga ko`proq e`tibor bergen holda yaratilmoqda. Ya`ni so`zlarni shakl va ma`no munosabatlari, iboralar ma`nodoshligi, o`xshashligi, zid ma`noliligi, arxaik va tarixiy so`zlarning qo`llanilishi, matn ustida ishlash kabi mavzular rang-barangligidan iborat. Ammo ba`zi o`quvchilar bunday so`zlarni nutqini o`stirish maqsadida emas, tast jarayonlariga tayyorlanish uchungina mazmunini anglab yetmay yodlab olmoqda xolos. O`quvchilar nutqiga e`tibor bersak, ularda ko`p hollarda adabiy tilga hos bo`limgan so`zlarning ishlatilishini kuzatish mumkin. Darslikda keltirilayotgan ibora-yu nutqqa oid turli so`zlarning gap tarkibida qanday holda, qay maqsadda ishlatilishini tasavvur ham qila olmaydi. O`quvchi nutqni o`stiradigan holatlarning birinchisi, so`z boyligining ko`pligi bo`lsa, keyingisi shu so`zlarni gap tarkibida o`z o`rnida qo`llab ravon, to`g`ri nutqni shakllantirishdir.

O`z ona tilini yaxshi bilgan, so`zlarni o`z o`rnida qo`llay olgan inson nutqini hamma eshitadi, tushunadi. Notiq bo`lish uchun, avvalo, insonning so`z boyligi ko`p bo`lishi zarur.¹

Xulosa qilib aytganda, o`z vataniga haqiqiy sodiq, mehnatsevar, vatanining kelajagi uchun, ravnaqi uchun qo`lidan kelgancha harakat qiladigan insonlarni, ular jamiyatning qaysi bo`g`inida bo`lmasin, qaysi sohada faoliyat ko`rsatishidan qatiy nazar qo`ldan kelgancha harakat qiladi. Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang`ich sinflarda olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta`lim mazmuni tubdan yangilanib bormoqda. Kichik mакtab yoshi davrida bolada mustaqil ta`lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olish bilan birga qo`shimcha manbaalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o`qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O`zbekiston” Toshkent-2022.
2. I.Mirzayev, M.Boltayev “O`zbek tili” Toshkent Abdulla Avloniy nomidagi xalq merosi nashryoti 2004.
3. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, va boshqalar. “Hozirgi o`zbek adabiy tili” Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2020.
4. O`ralov Azamat Begnarovich. “Hozirgi o`zbek adabiy tili” T.:2021
5. Ravshanbek Mahmudov. “Notiqlik san`ati va nutq madaniyati” – T.: “Mumtoz so`z” 2021.